

# ISLOM TARAQQIYOT BANKINING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403457>

**Usmonov Davlatbek Boboxon o'g'li,**  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi*

Ma'lumki, har bir mamlakatda ko'plab loyihalar amalga oshiriladi. Bu loyihalarning barchasi mamlakatning ichki hayotini, ya'ni jamiyatdagi aholining farovonligini yaxshilash maqsadida amalga oshiriladi. Shuningdek, davlatning davlat byudjetidan ijtimoiy sohalarga pul mablag'larini sarflashi orqali davlatning xarajatlari uning daromadlaridan oshib ketadi. Natijada, davlat ma'lum bir muddatga foizi bilan qaytarishga tashqi qarzlarni o'ziga jalb qiladi.

Islom taraqqiyoti banki ko'p tomonli moliya instituti bo'lib, 1-Islom Konferensiyasi Tashkiloti arab mamlakatlari Moliya vazirlari tomonidan 1975-yilda tarkib topgan bo'lib, prezidentlikka Ahmad Mohamed Ali Al-Madani tayinlangan. Islom Taraqqiyot Bankining shtab-kvartirasi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan. Islom Taraqqiyot Bankining hududiy ofislari bir necha davlatlarda ochildi.[1] Ulardan 1994-yili Rabot(Marokash)da, Kuala-Lumpur (Malayziya)da, 1997-yili Olma-Ota(Qozog'iston)da va 2008-yili Dakar(Senegal)da ochildi. Jumladan bank 12 ta a'zo mamlakatda mahalliy vakolatxonalarga ega: bular Ozarbayjon, Bangladesh, Gvineya, Indoneziya, Eron, Afg'oniston, Nigeriya, Pokiston, Serra-Leona, O'zbekiston, Sudan va Yaman davlatlaridir. Ushbu tashkilot a'zo bo'lgan davlatlararo savdo-sotiq, moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun sarmoyadan foydalanish hamda qimmatbaho qog'ozlar va lizing bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida ochilgan. Shariah normalariga asosan bunga naqd pul va qarzlar kiritilmaydi.[2]

Islom taraqqiyot bankining ko'zda tutilgan asosiy maqsadi a'zo bo'lgan mamlakatlarning shariatga asoslangan tarzda musulmon jamoalarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash tarzida yordam beradi. Uaksionerlik kapitaliga moliyaviy vositalarni sarmoyalashtirish, ishlab chiqarish korxonalari va

ularning loyihalariga kreditlar ajratish,a'zo davlatlarga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun moliyaviy tarafdan ko'maklashish va texnik yordam ko'rsatish,moliyaviy resurslar jalb qilish va depozitlarini qabul qilish, shuningdek musulmon davlatlarining keskin rivojlanishi uchun tashkilot a'zolarini barcha sohalarda o'qitishda xizmatlar ko'rsatish hamda bepul foizlarsiz kreditlarni berish va foydani teng taqsimlash kabi jarayonlarni ko'zda tutgan.2013-yilda Islom Taraqqiyot Bank boshqaruvchilar kengashi umumiylar hissadorlik kapitalini 30 milliard islomiylar dinordan 100 milliard islomiylar dinor (150 milliard dollar)ga ko'tarish haqida qaror qabul qildi. Shuningdek, bankning obuna bo'lish kapitali ham 18 milliard islomiylar dinordan 50 milliard islomiylar dinorga oshirildi. Ushbu qaror a'zo mamlakatlarning moliyalashtirish mablag'lariga bo'lган katta ehtiyoji bilan o'zaro chambarchas. Hozirgi kunda, tashkilotga a'zo bo'lганlar soni 56 taga oshgan, shuningdek, Saudiya Arabiston, Liviya, Eron, Nigeriya, Qatar, Misr, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari hamda Quvayt davlatlari bankning asosiy moliyalashtiradigan mamlakatlari hisoblanadi.[2]

Ma'lumki, islom bankining vazifasi a'zo bo'lган mamlakatlarning ijtimoiy ahvolini yaxshilashga yo'naltirilgan bankdir. Bank a'zo mamlakatlarning qashshoqlik ko'rsatkichini kamaytirishga ko'maklashish, savdo-iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish, joriy qilingan loyihalarni moliyalashtirish, mablag'larini to'g'ri yo'lga safarbar etish, eksport kreditlari va investitsiyalarni sug'urtalash, mehnatga yaroqli aholi uchun ta'lim dasturlari va tadqiqotlarini ishlab chiqish, favqulodda holatlarida ko'maklashish hamda mikromoliyalash xizmatlari kabi faoliyatlarga jalb etilgan. Islom taraqqiyot banki investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy risklarni baholash va ularga qarshi harakat qilish orqali risklarni boshqaradi. Islom taraqqiyot banki o'zining islomiylarini qonunlarini saqlab qolish maqsadida o'z faoliyatida islomiylarini prinsiplarga buysungan holatda ish yuritib kelyapti. Ma'lumki, a'zo mamlakatlarga investitsiyalarni kiritish hamda boshqa moliyaviy jarayonlarni mos ravishda aniq va oqilona, foizlarsiz tarzda amalga oshirmoqda, shuningdek, bank o'zining faoliyatini xalqaro moliyaviy va boshqaruv standartlariga amal qilgan holda o'z hisobotlarini xalqaro standartlarga mos

ravishda tuzadi. Bankning faoliyati yuqorida keltirib o'tilgandek, islomiy prinsiplarga tayangan holda, faoliyatning shar'iy tuzilishlari keltirib o'tilgan. Bank O'zbekiston iqtisodiyotini yanada jadal rivojlantirishda qo'shimcha investitsiya jalg etadi hamda sifatli moliyaviy va muhandislik imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash tarzida tadbirkorlik faoliyatini yanada yaxshilaydi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlash va yangi loyihalarni ko'rib chiqish hamda amalga oshirish, tadbirkorlik faoliyatini muntazam qo'llab-quvvatlash, isloh qilish, yangiliklarni amalga oshirish, iqtisodiyotimizni yuqori taraqqiyotga olib chiqish bo'yicha moliyaviy va muhandislik imkoniyatlarini yaratish, tadbirkorlik faoliyatini yaxshilash bo'yicha yordam ko'rsatish, rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy boshqaruv usullari orqali xalqaro standartlarni o'rganishni jalg etadi hamda mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi ham Islom taraqqiyot bankining asosiy vazifalari sifatida ko'zda tutilgan. Shuningdek, shu loyihani kuchga kiritish maqsadida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Islom taraqqiyot banki prezidenti Muhammad bin Sulaymon al-Jassirni qabul qildi. Bu haqida prezident matbuot xizmati ma'lumot berib o'tdi. Bu uchrashuvda investitsiyani jalg qilgan holda bank a'zolari bilan mamlakatimizda amalga oshiriladigan loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida \$400 millionlik bitimlar imzolangan bo'lib, shartnomada ko'zda tutilgan mablag' transport va qishloq infratuzilmasini yanada takomillashtirishga hamda maktabgacha bo'lgan ta'limni modernizatsiyalashga yo'naltirildi. Bundan tashqari, bank tuzilmalarini tadbirkorlik va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida aniq loyihalarga jalg qilish va bu loyihalarni ilgari surish, texnik ko'makni ko'rsatgan holda innovatsion ekotizimni joriy etish va mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishini qo'llab-quvvatlashga undadi.

Bundan avval, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasidagi yalpi majlisda shu haqida nutq so'zlagan edilar. Davlat rahbari mamlakat Jahon savdo tashkilotiga tez fursatda a'zo bo'lib kirishdan manfaatdor ekanligi haqida gapirib o'tdi hamda hozir tashkilotga a'zo bo'lgan

mamlakatlar bilan o'zaro bahs-muzokaralar olib borish bilan qonunchilikni jahon savdo tashkilot qoidalari yordamida uyg'unlashtirishni ma'qul ko'rdi. Shuningdek, 2022-yilning avgust oyida Islom taraqqiyot banki \$1,6 mldlik loyiha va dasturlarni moliyalashtirishi ma'lum bo'ldi. Sentabr oyiga borib, bank O'zbekistonga \$207 mln ajratishi haqida ikki mamlakatlar o'rtasida shartnomalar imzolandi. Mablag'larning yarmi Surxondaryoda kombinatsion IES qurishga, qolganini esa transport loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi hamda bankning O'zbekistonda maktablarni qurishga ajratilishi ham rejalashtirilgan.[3]

Xulosa qiladigan bo'lsak, davlat iqtisodiyoti defitsitga chiqqanida mamlakat o'ziga ijtimoiy ahvolini yaxshilash uchun kata miqdordagi mablag'ni jalb qilishi lozim va boshqa davlatlardan tashqi qarzni olishga majbur bo'ladi. Ma'lumki, uzoq muddatga belgilangan foizda qaytarish sharti bilan kredit oladi. Lekin, islom banki bundan istisno, ya'ni bank islomiy qoidalarga asoslangan holda foizlarsiz kredit berishni o'z maqsadi qilib olgan. Unda nafaqat islom taraqqiyot banki hamda kredit olgan davlatlar ham foyda ko'radi. Bankning asosiy daromadi rejalashtirilgan loyihalardan tushadigan foydani teng taqsimlanishi orqali kelib tushar ekan.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom\\_Taraqqiyot\\_Banki](https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_Taraqqiyot_Banki)
2. <https://nsp.gov.uz/outinst?id=13> (O'zbekiston milliy portal)
3. <https://www.spot.uz/oz/2023/04/27/isd-investment-deal>